



O'RTA OSIYO JADID MATBUOTIDA XORIJDA O'QIGAN TALABALARNI QO'LLAB–QUVVATLASH MASALALARI

<https://doi.org/10.5281/zenodo.19411120>

Davlatboyeva Vasila Azamat qizi

Nizomiy nomidagi O'zMPU Tarix fakulteti 3-kurs talabasi

Ilmiy rahbar: professor Z.A.Ilhomov

Annotatsiya. *XX asrga kelib Turkistonda jadidchilik harakatlarining ayni avj olgan davri bo'lib hisoblanadi. Bu davrga kelib jadidlarning asosiy g'oyalardan biri bu yoshlarning ta'lim masalalari edi. Shu maqsadda jadidlar yoshlarni xorijiy yurtlarda ta'lim olishga ham undadilar, hamda shart-sharoitlar yaratib berishga urindilar. Bu maqsadda jadidlar boshchiligida xalqdan yordamlar evaziga yoshlar Germaniya, Turkiya va shu kabi davlatlarga borib ta'lim olishga muvaffaq bo'ladilar. Ushbu maqolada aynan shu ta'limiy maqsadlarga yo'naltirilgan yordam jamiyatlarining tashkil topishi, yordamlari hamda matbuotda yoritilishi xususida so'z boradi va tahlil qilinadi.*

Kalit so'zlar. *“Jamiyati xayriya”, “Ko'mak” uyushmasi, jamiyat, xayriya, ziyolilar, ta'lim, talaba, matbuot.*

XX asrga kelib Turkiston o'lkasida kechayotgan mustamlaka zulmining ortishi va hukumat siyosatining natijasida o'lka aholisi savodsiz ahvolga tushib borayotgan edi. Bu davrga kelib nafaqat jadidlar balki, xalq orasidagi ziyoli qatlam vakillari o'lkadagi ushbu siyosatdan, xalqning ijtimoiy va manaviy holatidan kelib chiqqan holda milliy kadrlar tayyorlash maqsadini o'z oldilariga qo'ydilar. Ma'rifatparvarlarning ushbu maqsad va g'oylari yoshlarni ta'lim olishi orqali o'lkaga yangi bilimlar, texnologiyalar va ilg'or g'oyalarning kirib kelishi ozod Turkistonning kelajagi bo'lishi kabi manfaatlarni o'zida aks ettirgan edi. Shu maqsadda jadidlar oldida yoshlarni chet elga o'qishga jo'natish g'oyasi o'rta

chiqdi. Biroq, buning uchun moddiy yetishmovchilik bor edi. Shu sababli esa, xalqning moddiy yordamlariga asoslangan jamiyatlar ochila boshlandi. Bularga “Jamiyati xayriya”, “Turon”, “Ko'mak”, “Jamiyati Imdodiya”, “Shirkati Buxoroi sharif”, “Tarbiyayi atfol” va shu kabi bir qancha jamiyatlar ochilib, ulardan tushgan mablag'lar ta'limni rivojlantirishga ya'ni yoshlarni Yevropada ta'lim olishi bilan milliy kadrlar tayyorlash ishini takomillashtirish vazifasini o'z oldiga maqsad qilib qo'ygan.

1921 yil 23 aprelda Toshkentda o'tkazilgan O'zbek ilmiy komissiyasi majlisida o'zbeklardan xorijga talabalar yuborish masalasi muhokama qilindi. Unda komissiya a'zosi A. Yunusovning



ma'ruzasi tinglandi. Uning so'zlariga ko'ra, - "Turkiston Respublikasi kelgusida, haqiqatan ham, o'z milliy avtonomiyasi taraqqiyotiga erishmoqchi bo'lsa, unda yaqin kelajakda o'zining tub aholisi ichidan o'z oldida turgan katta vazifalarni hal qilish imkoniyatiga ega bo'lgan, yuqori darajadagi zamonaviy ilm-fan bilan qurollangan faollarga ega bo'lishi kerak. Bu qiyinchiliklardan chiqish yo'li bittagina, u ham bo'lsa, Turkiston yoshlaridan eng qobiliyatlarini zudlik bilan xorijga yuborib, u yerda eng taraqqiy qilgan va eng qudratli o'rta hamda oliy ta'lim olish imkoniyatini berishdir", - deya nutq so'zladi [1.9-10].

Ushbu fikrlar sovet hokimiyatining mustamlakachilik siyosati davrida milliy ozodlikka eishishning eng ilg'or g'oyasi bo'lgan. Bu yerda tub aholi ichidan milliy kadrlar tayyorlash g'oyasi ostida tashqi kuchlarga qaram bo'lmaslik yotadi. Aynan, o'zgarishlarni yoshlardan boshlanishi kelajakda ozod Turkistonning har sohada o'ziga yarasha va yetarli kadrlar bilan ta'minlana olishi hamda xalqning ushbu ta'lim orqasidam rivojlanyotgan texnologiyalar va ilmlardan boxabar bo'lishi ham shu davr ijtimoiy muhitining zaruriy ehtiyoji bo'lib kelgan. Ular, birinchi navbatda, o'sha davrda G'arbiy Yevropada eng taraqqiy etgan mamlakat - Germaniya erishgan yutuq va tajribalarni o'rganishni zarur, deb hisobladilar. Buning uchun avvalo mahalliy yoshlarni Germaniyaga, shuningdek, Sharq va G'arbdagi boshqa ilg'or mamlakatlarga yuborish, ular

yordamida bu mamlakatlarda erishilgan ilmiy-texnik yutuq va tajribalar bilan tanishish, shu asosda o'lkani iqtisodiy va madaniy qoloqlikdan qutqarish mumkin edi. Bu favqulodda muhim va murakkab loyihani amalga oshirish uchun esa, birinchidan, mablag' topish, ikkinchidan, iste'dodli yosh yigit va qizlarni tanlash, uchinchidan, bu yigit va qizlarning otalaridan ruxsat olish lozim edi. Turkistondan turli yo'llar ya'ni hukumat tomonidan, «Ko'mak» uyushmasi⁹⁷ yordamida yoki xususiy yo'llar bilan xorijga talabalar yuborish harakatlari boshlandi [1.9.].

Avvalo ushbu harakatlar ziyolilarning asosiy strategiyasini ko'rsatadi ya'ni milliy taraqqiyotning kaliti sifatida ta'lim va kadrlar tayyorlash masalasini ko'rganliklari. Ushbu majlisdagi muhokama Turkistonni zamonaviylashtirish uchun tanlangan yo'l bo'lgan. Ilm fan, texnika va ta'lim tizimi jihatidan eng ilg'or davlatlardan biri Germaniyaning tanlanishi ichki islohotlar bilan cheklanib qolmasdan, tashqi tajribani ham bevosita o'zlashtirish imkonini berar edi. Jadidlarning fikriga ko'ra ta'lim bu faqat bilim olish emas balki, iqtisodiyotni rivojlantirish, madaniy yuksalish va jamiyatni zamonaviylashtiruvchi vosita sifatida ham qaralgan. Jadidlar faqat "Ko'mak" uyushmasi bilan cheklanib qolmasdan,

⁹⁷ "Ko'mak" uyushmasi-XX asr boshlarida turkistonlik yoshlarning xorijda tahsil olishiga ko'maklashish, mahalliy maktablarda, madrasalarda tahsil olayotgan yoshlarni xorijdagi oliy o'quv yurtlariga o'qishga jo'natish, ichki Rossiyada tahsil olayotgan yoshlarga yordamlashish maqsadida jadid taraqqiyparvarlari tomonidan tashkil etilgan.



“Jamiyati xayriya” ni ham tuzdilar. Bu haqida Abdulla Avloniyning⁹⁸ “Turkiston xalqining birligini ta’minlash va yosh avlodni ma’rifatli qilish borasida bir nechta o’rtoqlar bilan 1909 yil 12 mayda “Jamiyati xayriya” ochganligining guvohi bolamiz. Jamiyat tashkil etilgach, Ubaydulla Xo’jayev⁹⁹, Toshpo’latbek Norbo’tabekov¹⁰⁰ kabi huquqshunoslar tomonidan jamiyatning 41 moddadan iborat nizomi ishlab chiqilgan”ligi haqidagi so’zlari tadqiqodchi D.Abdullayev tomonidan ko’rsatib o’tiladi. Yana ta’kidlanadiki, “Jamiyati xayriya” tashkilotining asosiy vazifalari qatoriga aholining barcha qatlamlarini o’qitish uchun maktablarni tashkil qilish, kambag’al bolalar va yetimlarga homiylik qilish, turli mehribonlik uylarini tashkil etish, talabalarga yordam ko’rsatish kirgan [2.56-57.]. Abdulla Avloniyning “Tanlagan asarlar”ida “Abdulla Avloniy bilan birgalikda 1909-yilda “Jamiyati xayriya tuzgan Toshhoji Tuyoqboyev ham bor edi”, - deya ko’rsatiladi [3.20.].

Ko’rish mumkin, jadidlar oldiga qo’yg’an maqsadlar negizi ta’lim sohasiga borib taqalmoqda. Aynan oliy ta’limning ham rivoji uchun avvalo maktablarni isloh qilish yo’li tanlangan. Yevropaga talaba yoshlarni jo’natish ham bitta

uyushma bilan qilinmagan, aksincha bir nechta uyushma va jamiyatlar ko’magi asosidan talabalar xorijga jo’natilgan. Ushbu talaba yoshlar hali ko’pchilikni tashkil qilmagan holda ham bitta uyushma yoki jamiyat bilan cheklanilmagan. Yordam har tomonlama kelib turgan. Horijga yuborilgan talabalar haqida taraqqiyparvar ziyolilardan Shokir Sulaymonov¹⁰¹ shunday yozadi: - “So’nggi kunlarda yurtni idora qilish siyosiy, ilmiy, faniy muvaffaqiyatdadir. Kuchlarning yo’qligi ochiq sezildi. Turkiston o’zini-o’zi idora qiladigan haqiqiy usta (olim)larni talab qila boshladi. Mana shu hollarni ko’rgan Turkiston yoshlari najotimiz maorifda, maorif esa Yevropada ekanligini bilib, shu tomon keta boshladilar. Natijada Kavkaz, Bakuda 50 ta talaba, Moskva va Peterburgda 150 talaba, Berlinda 70 talaba, butun Yevropada 270 taga yaqin turkistonlik o’quvchilarni ko’ramiz” [4.121.]. Sherali Turdiyev¹⁰²ning izlanishlariga ko’ra ham “Turkiston va Buxorodan 1922 yil oxirlarida 70 ga yaqin turli yoshdagi mahalliy yosh yigit va qizlar Germaniyaning turli shaharlaridagi oliy va o’rta maxsus o’quv yurtlariga qishloq xo’jaligi, tekstil sanoati, kimyo, elektrotexnika, konchilik, falsafa, pedagogika, tibbiyot va boshqa

⁹⁸ Abdulla Avloniy– (1878-1934) iste’dodli shoir, dramaturg, pedagog, jurnalist, o’zbek madaniyati va adabiyotining asoschilaridan biri.

⁹⁹ Ubaydulla Xo’jayev–Ubaydullaxo’ja Asadullaxo’jayev (ayrim manbalarda Xo’jayev Ubaydulla) (1878-1942) – jamoat arbobi, jadidchilik harakatining yirik vakili, o’zbek matbuotining ilk tashkilotchilaridan biri.

¹⁰⁰ Toshpo’latbek Norbo’tabekov–davlat va jamoat arbobi. Turkiston Milliy Majlisi a’zosi.

¹⁰¹ Shokir Sulaymonov–ma’rifatparvarlik g’oyalar targ’ibotchisi sifatida faoliyat ko’rsatgan shoir, nosir, publitsist. XX asrning 20-30-yillarida O’zbekistondagi ijtimoiy, adabiy va madaniy harakatda faol qatnashgan siymolardan biridir.

¹⁰² Sherali Turdiyev – (1933, Zomin tumani — 2011, Toshkent) adabiyotshunos, O’zbekiston Fanlar Akademiyasining muxbir a’zosi (1969), O’zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a’zosi (1993).



muhim sohalar bo'yicha o'qishga yuboriladi. Bular ichida shu davrda Saydali Xo'jayev¹⁰³, Sattor Jabbor¹⁰⁴, Ahmad Shukriy¹⁰⁵, Ahmadjon Ibroqimov¹⁰⁶, Xayriniso Majidxonova¹⁰⁷, Maryam Sultonmurodova¹⁰⁸ va boshqalar bor edilar [1.10].

Bu kabi umidli yoshlarning o'zga yurtlarda tahsil olishga bo'lgan intilishlarini o'lka ravnaqiga ulush qo'shishdek oliy maqsadi, manaviyat va fan sohalarini rivojlantirish kabi, ulkan vazifalar ruhlantirib hamda birlashtirib turgan. Aynan jadid ma'rifatparvarlar ham taraqqiyot yo'lini maorif sohasi va Yevropa tajribasi bilan bog'ladi. Bunda natoj ta'limda, rivojlanish esa zamonaviy bilimlarda, yechim bo'lib esa, chet el tajribasi o'rganilishi bo'ldi. Yuqorida ismlari keltirilgan talabalar keyinchalik ham jamiyat rivoji uchun xizmat qiladigan milliy kadrlar edilar. Ayniqsa, qizlarning ham yuborilishi bu ijtimoiy hayot uchun ham yangilik bo'ldi. Ushbu

¹⁰³ Saydali Xo'jayev–Germaniyada tahsil olgan talabalar qatorida bo'lgan.

¹⁰⁴ Sattor Jabbor-XX asr boshida Germaniyada tahsil olgan taraqqiyparvar, birinchi o'zbek kimyogari, tarjimon, pedagog va adabiyotshunos. 30-yillardagi O'zbekistonda sodir bo'lgan muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Nemis josusi ayblovi qo'yilib sovet hukumati tomonidan otib tashlangan.

¹⁰⁵ Ahmad Shukriy–BXSrdan tanlangan 60 nafar yigitlar qatorida Germaniyaga yo'llangan.

¹⁰⁶ Ahmadjon Ibroqimov–Germaniyada tahsil ko'rgan talabalar qatorida bo'lgan.

¹⁰⁷ Xayriniso Majidova–1905-yil Toshkentda, ma'rifatparvar oilasida dunyoga keldi. 1922-yil oxirida bir guruh o'g'il-qizlar qatorida Turkistondan Germaniyaga o'qishga yuboriladi. 1938-yil 9-oktabrda otib tashlangan.

¹⁰⁸ Mayram Sultonmurodova–1905-yil 13-fevralda Xorazm viloyati Xiva shahrida tug'ilgan. Germaniyada 1922–1928-yillarda ta'lim olgan.

yoshlar olgan ilm-u marifat bilan kelajakda ilm-fan, ta'lim va davlatning boshqaruv tizimida ularning muhim ro'l o'ynashi ko'zlangan. Jamiyatlarning ochilishi xususida va ularning davomiyligining qay yo'sinda ta'minlanib borishi borasida ham ma'rifatparvarlar o'z so'zlari bilan matbuotda ochiq qalamga olgan. Xususan, Munavvarqori Abdurashidxonovga ko'ra: - "Jamiyatga ruxsat berilgandan so'ngra, avvalo, mas'ullar yig'ilishib, o'z oralaridan bir rais, bir kotib va bir xazinachi saylaydilar. Qolganlari idora a'zosi hisoblanadi. Shu kundan e'tiboran jamiyatning haqiqiy xizmati boshlanadi. Pul topish, a'zolari ko'paytirish va qonun doirasida jamiyat vositasida umumiy manfaatga xizmat qilish kabi ulug' himmat, g'ayrat va fidokorliklarga navbat keladi. Faqat ish bu darajaga yetganda, muassis yoniga bir necha o'zlari kabi fidokor millat xodimlari to'plangan bo'lib, maqsadlariga asta-sekin erisha boshlaydilar. Demak, milliy bir jamiyatni vujudga keltirish uchun kerak bo'lgan yo'l, tartib va tadbirlar shundan iborat bo'ladi", - deya keltiradi [5.].

Chor hukumatining ta'qib va bosimlari ularni umidsizlantirmadi, ular o'z maqsad va g'oyalarida davom etdilar. Hatto juda qiyin sharoitda ham chet elga o'quvchilar yubordilar. Jamiyatlar chetga ketayotgan o'quvchilarga va maktablarga moddiy hamda ma'naviy yordam bera oladigan darajada kuchga ega bo'ldi. Gazetalar esa jamoatchilik fikrini o'ziga jalb qilib, 3–4 ming nusxada sotiladigan darajaga yetdi [6.175-176].



Anglaganimizdek, Chor hukumatning mahalliy xalqning rivojlanishiga bo'lgan to'sqinliklari jadidlarni to'xtatib qo'ymagan. Bunga aynan asosiy maqsadlari yo'lidagi sobit qadamliliklari sabab edi. Ushbu marifiy jihatdan uyg'onish bilan yangi usul maktablari tarmoqlari va shart-sharoitlarini rivojlantirish va ta'minlash, gazetalarni yo'lga qo'yib xalqni nafaqat mahalliy xabarlar balki, siyosiy ya'ni hukumatning harakatlarini ko'rsatish hamda jamiyatlar tashkil qilish kabi maqsad va vazifalar bilan turar edilar. Fikrimizcha, gazetlarning o'rniga o'rin yangidan chiqarilib, davomiyligi ta'minlanib borilgani ham katta ish edi aslida. Sababi, davrning muhitidan kelib chiqib qaraydigan bo'lsak, bu davrda aynan ilmni va yangiliklarni yoyuvchi, milliy ong va o'zlikni anglatuvchi vosita ham - matbuot bo'ldi. Hukumatning qarshiligiga keladigan bo'lsak, bu mustamlakachilik siyosatidan kelib chiqqan holda bo'lib, xalqni milliy uyg'onish va milliy mustaqillikdan cheklashdan iborat bo'ldi. 3-4 minglab nusxadagi gazetalarning chiqarilishi ham darsliklarning yaratilishi ham hukumatning islohotlarga asta-sekin majbur bo'lganini isbotidir. Agar majbur bo'lmaganida jamiyatlar ham ochilmas va matbuot ham bu darajada rivojlanmas edi. Bunda aynan jadidlarning jamiyatga ta'sirining oshganini ko'rishimiz mumkin. Shu o'rinda jamiyatlarning talabalar uchun qilgan yordamlari va stipendiyalar bilan ta'minlanib turganliklari xususidagi ma'lumotlarga

yuzlanadiga bo'lsak, jamiyatning talabalarni chet ellarda o'qitish ishlariga qilgan homiylik ishlarini ko'rsatishimiz mumkin. Xususan "Jamiyati xayriya"ning ko'magida, yoshlar Rossiya imperiyasining Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalarga, shuningdek, Istanbul, Qohira kabi xorijiy shaharlardagi dorilfununlarga o'qishga jo'natilgan. Misol uchun, 1910 yilda bu jamiyatning yordami bilan bir guruh yoshlar Ufada "Oliya", Orenburgda esa "Husayniya" madrasalarida tahsil olganlar [2.156-157].

Bu ma'lumotlar jamiyatlarning ayni ko'paygan davrida ham xalqning va ziyolilarning yordamdan to'xtamaganini maorif rivoji uchun bo'lgan mablag'larning yetkazilib turilganligining o'zi ham katta quvvatlash bo'lgan.

Xususan, bu kabi raqamlarni ham quyida keltirib o'tsak, unga ko'ra: "Buxoro va Turkistondan Germaniyaga o'qishga yuborilgan talabalarga RSFSR Tashqi ishlar komissari o'rinbosari Chicherin va boshqalar orqali doimiy stipendiya, moddiy va ma'naviy yordam yuborib turilgan. Xorijdagi Turkistonlik talabalarga davlat stipendiyalaridan tashqari, ularga yordam ko'rsatish uchun tuzilgan "Ko'mak" jamiyatidan ham xayriya mablag'lari yuborib turilgan. Masalan, 1921 yilda Toshkentda tashkil etilgan "Ko'mak" uyushmasi a'zolarining o'qigan ma'ruzalari, milliy san'at ustalari tomonidan ko'rsatilgan spektakllardan tushgan daromadning 80 foizi, uluq poygasidan tushgan daromadning esa 20



foizi talabalarga yuborilgan” [1.10.]. 1921-yil Germaniyaga o‘qishga ketgan toshkentlik Abduvahob Murodiyning¹⁰⁹ : “Agar yoshlarni xorijga yo‘natsanglar Germaniyaga jo‘natinglar, bu yerda faqat turkistonliklardan yolg‘iz o‘zimman va bu yerda nemislarning ham maorif ham ilmda Yevropaga ham ustoz bo‘lyotgani sababli”- degan mazmundagi “Berlindan xat” nomli maqolasida so‘z yuritadi [7.]. Aynan ushbu maktubdan rag‘batlangan Toshkentlik bir guruh maorif va madaniyat xodimlari uning moddiy ta‘minoti uchun qog‘oz va oltin pul, Mirzacho‘l dehqonlari nomidan esa qo‘y va meva-cheva yuboradilar. Jumladan, jadid ziyolilaridan Saidnosir Mirjalilov 20 000 so‘m¹¹⁰, Cho‘lpon 7 500 so‘m¹¹¹ yuboradilar, Munavvar qori Abdurashidxonov, Shokirjon Rahimiylar¹¹² ham alohida himmat ko‘rsatadilar. Bundan tashqari, Toshkent maorifparvarlari 2 dekabrda adabiy kecha uyushtirib, undan tushgan sof foydani (75 000 so‘m) “tegishli yo‘llar bilan” Abduvahob Murodiyga yetkazadilar [1.13.].

Ushbu o‘rinda A.Murodiyning yordamga muhtojligi va Mirzacho‘l

dehqonlarining yordamga shoshilganliklarini aytishimiz mumkin. Jamiyatda ham ijtimoiy va iqtisodiy cheklovlar mavjud edi, aynan jadidlarning o‘zida ham yetarli mablag‘lar mavjud emas edi. Ziyolilarning badiiy kecha, xayriya tashkilotlari hamda shaxsiy hissalaridan yig‘ilgan mablag‘lar hamkorlikdagi harakatlarda o‘z aksini topgan. Moddiy yordam faqat shaxslardan emas balki, jamiyat va dehqonlardan ham bo‘lgan. Natijada esa, A. Murodiyning ham moddiy ehtiyojlari qisman qoplab berilgan. Birgina “Jamiyati xayriya”ning yig‘gan mablag‘lari emas, balki “Ko‘mak” uyushmasidan tushyotgan mablag‘lar ham chetdagi talabalarga ham moddiy, ham ma‘naviy jihatdan dastak bergan hamda ularning yangi ilmlar va texnologiyalarni o‘rganishga bo‘lgan shijoatini yanada oshirgan.

Ma‘rifatparvar ziyolilardan Salim Tillaxonov¹¹³ shunday yozadi: - “1922 yil o‘qish masalasida Toshkentda tashkil etilgan “Ko‘mak” uyushmasining tashabbusi, Turkiston hukumati ko‘magi, shuningdek, Buxoro jumhuriyatining g‘ayrati bilan Turkiston va Buxoro jumhuriyatidan 70 taga yaqin o‘quvchilarni Germaniyaga yuborgan edi. Germaniyada Rossiyadan 10 000, Yaponiyadan 4000, Turkiyadan 3000, Xitoydan 4000 talaba bor. Biroq 12 millionli Turkistondan 70 tagina talabaning bo‘lishi hech bizni

¹⁰⁹ Abduvahob Murodiy—XX asr boshida Germaniyada tahsil olgan taraqqiyparvar, birinchi o‘zbek agronomi, o‘qituvchi va olim 1930-yillardagi muhim ijtimoiy-madaniy jarayonlarning faol ishtirokchisi. Aksilinqilobiy tashkilot a‘zosi sifatida qatag‘onga uchragan.

¹¹⁰ Saidnosir Mirjalilov – (1884-1937) — atoqli ma‘rifatparvar, Turkistondagi milliy ozodlik harakatining taniqli namoyandalardan biri.

¹¹¹ Abdulhamid Sulaymon o‘g‘li Cho‘lpon—shoir, yozuvchi, dramaturg, tarjimon, tanqidchi va jamoat arbobi.

¹¹² Shokirjon Rahimiy – (1898, Toshkent — 1938.4.10) - ma‘rifatparvar.

¹¹³ Salim Tillaxonov – (1898, Toshkent — 1931.23.4, Moskva) — pedagog, O‘zbekistonda milliy istiqlol harakati namoyandalardan biri, “Milliy ittihad” tashkiloti Sirdaryo viloyati rahbarlaridan.



qanoatlantira olmaydi. Harakat qilib, kelgusi yillarda Yevropaning turli burchaklariga 70 minglab talabalarni yuborishimiz kerak. Biz kelajakda doktorlarni, adiblarni, faylasuflarni va yo'lboshchilarimizni o'z ichimizdan chiqarishimiz lozim", — deb barcha e'tiborni ilm olishga qaratib, kelajakda yetuk kadrlar yetishib chiqishini xohlaydi [4.122.]. Bu gaplar bilan jadid ziyolisi raqamlarning farqi bilan orqada qolish muammosini ochib beradi. U ham bo'lsa solishtirganda boshqa davlatlarga ko'ra juda kam edi. Muallif bu o'rinda tanqid emas, aksincha, yechimni ko'rsatmoqda. Bu ham bo'lsa kelajakda ham minglab yoshlarning Yevropda o'qishi edi. Raqamlarga razm soladigan bo'lsak ushbu raqamlar bu vaqtdan 2 yil o'tgach ko'payganini ko'rish mumkin. "Ozod Buxoro" gazetasining 1924 yil 2 - sentyabrdagi sonida Fayzulla Xo'jayev¹¹⁴ o'z maqolasida ayni paytda xorijiy mamlakatlarda 400 ga yaqin talabalar o'qiyotganligini yozgan [4.123.].

Bu oldingi ko'rsatgichlarga nisbatan sezilarli o'sish edi. Aynan jadidlarning tashabbusining samara bera boshlaganini shu ma'lumotlar bilan tasdiqlamog'imiz mumkin. Milliy kadrlar tayyorlash shu kabi amaliy natijaga chiqa boshladi. Ushbu ko'rsatgichlar ko'rsatayotgan miqdorlar orasida jadidlarning o'zlari ham bor edi. Sh.

¹¹⁴ Fayzulla Xo'jayev—atoqli davlat va siyosat arbobi, Buxoro jadidchiligining faol ishtirokchisi, „Yosh buxoroliklar“ partiyasining rahbarlaridan biri. Buxoro Xalq Sovet Respublikasining Nozirlar Kengashi raisi. Shuningdek, keyinchalik O'zbekiston SSRning rahbarlaridan biri sifatida faoliyat yuritgan

Turdiyevning "Ular Germaniyada o'qigan edilar" nomli kitobida: — "Toshkentdagi "Ko'mak" kabi xayriya jamiyatlari orqali iste'dodli yoshlar Ichki Rossiyaning Peterburg, Saratov, Qozon, Ufa, Orenburg shaharlaridagi oliy maktab va madrasalar bilan birga Istanbul, Qohira kabi xorijiy shaharlardagi dorilfununlarga o'qishga yuborilgan. Shunday talabalar orasidan Fitrat¹¹⁵, G'ozim Olim Yunusov¹¹⁶, Xolid Said¹¹⁷, Eson afandi Musayev¹¹⁸ kabi yozuvchi va olimlar, Mustaf Cho'qayev¹¹⁹, Ubaydulla Xo'jayev, Norbo'tabekov kabi huquqshunoslar yetishib chiqdi"— deya yoziladi. Aynan, ularning ushbu yoshlar qatorida bo'lishi ularga ham o'rnak, ham qu'llab-quvvatlash bo'lgan bo'lsa ajab emas. "Ko'mak" kabi jamiyatlar faoliyati natijasida xorijda ta'lim olgan yoshlar keyinchalik Turkistonning ilmiy, adabiy

¹¹⁵ Abdurauf Fitrat—o'zbek tarixchisi, filolog, tarjimon, yozuvchi, zamonaviy o'zbek tili va adabiyoti asoschilaridan biri, O'rta Osiyo jadidchiligining taniqli vakili, birinchi o'zbek professori. Turkiyada ta'lim olgan.

¹¹⁶ G'ozim Olim — (G'ozim Yunus, 1893 — Toshkent shahri — 1938.5.10) — tilshunos, folklorshunos olim. Turkiya untda, Anqaradagi „al-Azhar“ madrasasida o'qigan (1912—14). 1918-yil iyulda Turkiston yoshlarini milliy va ilmiy ruhda tarbiyalash maqsadida „Turk o'chog'i“ tashkilotini tuzgan

¹¹⁷ Xolid Said — (1888—1937) Toshkentdagi yangi usul maktablarida 1914-yilgacha muallimlik qilgan va jadid matbuoti ("Sadoi Turkiston", "Sadoi Farg'ona") da she'r va maqolalari bilan ishtirok etgan. "Hayolij" va "Sayyoh darvesh" taxalluslari bilan maqola va she'rlar yozgan. 1914—1918-yillarda Turkiyada tahsil olgan. U Istanbul universitetining "tarix va filologiya" fakultetida ta'lim olgan.

¹¹⁸ Eson Afandi—xorijda tahsil olgan o'zbek talabalaridan biri.

¹¹⁹ Mustaf Cho'qay — (1886-1941) Turkiston mustaqilligi uchun kurashchi, Turkiston muxtoriyati hukumatining Bosh vaziri. Otasi Cho'qaybey To'rg'ay dodxoh o'g'li bo'lis boshlig'i edi. Mustaf Cho'qay boshlang'ich ma'lumotni Oqmachitda olgach, Toshkentdagi rus gimnaziyasida o'qidi, Peterburg universitetining huquq fakultetini tugatdi.



va siyosiy hayotida yetakchi kuchga aylanganini ko'rish mumkin. Bu esa ma'rifatparvarlarning uzoqni ko'ra olgan siyosatini tasdiqlab bordi. Biroq ularning kelgusidagi taqdiri juda ayanchli kechdi. Ayni marifatparlik harakatlarning rivojlanish jarayonida yuz bergan ushbu holatlar, jamiyatning ziyoli qatlamiga zarba bermasdan qolmasdi va bu milliy taraqqiyotning su'niy ravishda to'xtatilishiga olib kelgan. Ma'rifatparvar jadidlar tayyorlagan milliy kadrlar ham yo'q qilindi. Bu bilan milliy rivojlanish bir necha o'n yillarga orqaga surildi. Jadidlar qanchalik harakat qilmasin baribir, sovetlarning mustamlakachilik siyosati ularni jismonan yengdi. Biroq, ularning say'-harakatlari bizgacha hamon tirik va bu millat tirik ekan ular hech qachon manan o'lmaydilar. Albatta, ularning harakatlari samarasiz ketmadi. Muhimi ular qiyin davrlarda, qiyinchiliklarga qaramasdan, vatan ravnaqi, yurt obodligiga, xalq va millatning ozodligi hamda milliy g'oyalari uchun kurashgan eng buyuk jadidlar o'laroq Turkiston hurriyati uchun imkonlari boricha harakat boshlab berdilar. Uning davomi esa aynan ular kutgan mustaqillikka qo'yilgan qadamlar bilan yanada jadallashdi.

Xulosa sifatida ko'rsatib o'tish joizki, XX asr boshlarida Turkiston va Buxoro hududida faoliyat yuritgan jadid ma'rifatparvarlari millat taraqqiyotining asosiy yo'li sifatida ilm-fan va ta'limni tanladilar. Ular "Jamiyati xayriya", "Ko'mak" kabi tashkilotlar orqali yoshlarni nafaqat mahalliy, balki Rossiya va Yevropaning nufuzli o'quv yurtlarida tahsil olishga yo'naltirdilar. Natijada 1920-yillarga kelib xorijda ta'lim olayotgan talabalar soni sezilarli darajada ortib, 400 nafarga yaqinlashdi. Bu jarayon jadidlarning uzoqni ko'zlab olib borgan siyosati - milliy kadrlar tayyorlash strategiyasining amaliy natijasi edi. Xorijda tahsil olgan yoshlar orasidan Fitrat, Cho'lpon, Mustafo Cho'qayev, Ubaydulla Xo'jayev kabi yirik adiblar, olimlar va davlat arboblari yetishib chiqdi. Ular millatning ilmiy, madaniy va siyosiy rivojida muhim o'rin egalladi. Shu bilan birga, bu yutuqlar osonlik bilan qo'lga kiritilmadi. Chor Rossiyasi davrida ham, keyinchalik sovet tuzumi davrida ham ma'rifiy harakatlarga turli to'sqinliklar qilindi. Biroq jadidlar o'z maqsadlaridan voz kechmay, gazeta, maktab va jamiyatlar orqali faoliyatlarini davom ettirdilar.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Turdiyev Sh. "Ular Germaniyada o'qigan edilar" Toshkent. 2006.
2. Abdullayev D.N "O'zbekistonda xayriya va homiylikning rivojlanish tarixi" Toshkent- "Innavatsiya Ziyo". 2019.
3. Abdulla Avloniy "Tanlangan asarlar" Toshkent "Ma'naviyat". 2009.



4. “Jadid ma’rifatparvarlik harakatining g’oyaviy asoslari” “Toshkent islom universiteti” nashryot-matbaa birlashmasi Toshkent. 2016.
5. “Sadoyi Turkiston” 1914 yil, 14 iyun // Ziyoz.uz.
6. Abdurashidxonov M. “Tanlangan asarlar” Toshkent. “Ma’naviyat”. 2003.
7. Abdurahob Murod. “Berlindan xat”. Qizil bayroq gazetasi”, 1992-yil 29-iyul, 1 avgust // Ziyoz.com